hodisagacha), bu shaxsiy ma'lumotlarga ruxsatsiz kirishning 29 foizga kamayishi tufayli yuz bergan [2]. Ushbu statistik ma'lumotlar jinoyatchilikka qarshi kurashishda mavjud yutuqlar bilan birga, yangi tahdidlarga qarshi doimiy ravishda innovatsion yondashuvlarni qo'llash zarurligini ko'rsatadi. Buyuk Britaniyaning tajribasi 1980-yillardan boshlab shakllangan qonunlar, milliy strategiyalar va amaliy dasturlarga asoslanadi, bu esa uning samaradorligini ta'minlaydi.

Ushbu maqola Buyuk Britaniya jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimining huquqiy asoslarini, asosiy qonunlari va dasturlarini tahlil qilish bilan birga, ushbu tajribaning O'zbekiston sharoitiga moslashtirish imkoniyatlarini ko'rib chiqishga bag'ishlanadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi Buyuk Britaniyada jinoyatchilikka qarshi kurashishning huquqiy va amaliy mexanizmlarini chuqur o'rganish, ularning samaradorligini baholash va bu tajribani respublikamizda qo'llash imkoniyatlarini aniqlashdan iborat. Xususan, maqolada *Police and Criminal Evidence Act 1984*, *Crime and Disorder Act 1998*, *Criminal Justice Act 2003* va *Offender Rehabilitation Act 2014* kabi muhim qonunlarning mazmuni va huquqbuzarliklarga qarshi kurashishdagi o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinib, "Neighbourhood Watch", "Project Servator" hamda "Serious Violence Strategy" kabi dasturlarning amaliyotdagi samaradorligini o'rganish orqali O'zbekistonda jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini takomillashtirish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqish ko'zlanadi. Bundan tashqari, Buyuk Britaniyaning profilaktik choralari, jamoatchilik bilan hamkorlik modellari va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish tajribasini O'zbekistonning mahalla tizimi va profilaktika inspektorlari bilan integratsiyalash imkoniyatlarini ko'rib chiqish zarur.

Buyuk Britaniya tajribasi kompleks yondashuvga asoslangan bo'lib, politsiya, mahalliy hokimiyat, ta'lim, sog'liqni saqlash muassasalari va jamoatchilik o'rtasidagi uzviy hamkorlikka tayanadi. Bu model

O'zbekistonda jinoyatlarning oldini olish, jamoatchilik ishonchini mustahkamlash va huquqni muhofaza qiluvchi organlar samaradorligini oshirish uchun muhim yo'l-yo'riq bo'lib xizmat qilishi mumkin. Xususan, "Neighbourhood Watch" dasturi orqali fuqarolarning mahalliy xavfsizlikni ta'minlashda ishtirokini kuchaytirish, "Secured by Design" standartlarini shaharsozlik va qurilish jarayonlariga joriy etish va "Project Servator" kabi profilaktik patrullarni O'zbekistonning mahalla tizimiga moslashtirish imkoniyati mavjud. Tadqiqot natijalari O'zbekistonda mavjud normativ-huquqiy baza va amaliy mexanizmlarni rivojlantirishga xizmat qiladi, shu bilan birga, jinoyatchilikka qarshi kurashishda jamoatchilikning faol ishtirokini ta'minlash va zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanishning yangi yo'llarini ochib beradi.

#### **Material va metodlar**

Ushbu tadqiqotda jinoyatlarning oldini olish, jamoat xavfsizligini ta'minlash va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi. Xususan, Buyuk Britaniyaning jinoyatchilikka qarshi kurashish borasidagi qonunlaridan (masalan, *Police and Criminal Evidence Act 1984*, *Criminal Justice Act 2003*, *Serious Violence Strategy 2018*, *National Cyber Strategy 2022*) asosiy tahliliy material sifatida foydalanildi. Huquqshunos olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari, milliy va xorijiy manbalar, shuningdek, Buyuk Britaniya hukumati va tegishli idoralarning (Home Office, NPCC, NCSC) rasmiy hisobotlari asos qilib olindi.

Tadqiqotda umumiy tahlil, qiyosiy-huquqiy tahlil, sintez, kuzatish, umumlashtirish, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi.

#### **Tadqiqot natijalari**

Buyuk Britaniya jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimining huquqiy asoslari va amaliy mexanizmlarini tahlil qilish va huquq tizimini o'rganib chiqish jinoyatchilikka qarshi ku-

rashishda samaradorlikni oshiradi. Tadqiqot jarayonida Buyuk Britaniyaning asosiy qonunlari, milliy strategiyalari va dasturlarini chuqur o'rganish, jinoyatchilikka qarshi kurashish tajribasining asosiy elementlari, ularning samaradorligini oshiruvchi omillarni tahlil qilishga ahamiyat berildi.

Buyuk Britaniyada jinoyatchilikka qarshi kurashishning huquqiy bazasi 1980-yillardan shakllangan bo'lib, qator muhim qonunlar orqali mustahkamlandi. Tadqiqot natijalari- ga ko'ra, ushbu qonunlar politsiya faoliyatini tartibga solish, fuqarolar huquqlarini himoya qilish va jinoyatlarning oldini olishda muhim rol o'ynaydi. Asosiy qonunlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

– *Police and Criminal Evidence Act 1984* (PACE). Ushbu qonun politsiya vakolatlarini aniqlashtirib, tergov jarayonlarini standartlashtirdi. PACE politsiyaning tintuv, hibsga olish va so'roq qilish jarayonlarini qat'iy tartibga soldi, shu bilan birga, gumonlanuvchilarning huquqlarini himoyalashga xizmat qildi. Masalan, so'roq jarayonlarining audio- va videotasvirga olinishi, dalillarning qonuniy yo'l bilan olinishi kabi talablar sud jarayonlarida shaffoflikni oshirdi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, PACE qonunchiligi politsiya faoliyatidagi intizomiy buzilishlarni 20 foizga kamaytirishga yordam berdi. Buning sababi sifatida mazkur qonun politsiya xodimlarining mas'uliyatini oshirishga xizmat qilganini ko'rish mumkin [3];

– *Criminal Justice and Public Order Act 1994* (CJPOA). Bu qonun politsiya vakolatlarini kengaytirib, jamoat tartibini saqlashda qo'shimcha imkoniyatlar yaratdi. Ayniqsa, "sukut saqlash huquqi"ning cheklanishi sud jarayonlarida dalillarni baholashda muhim o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Mazkur qonunning qabul qilinishi ommaviy tartibsizliklarni 15 foizga kamaytirishga xizmat qilgan bo'lsa-da, qonunning ayrim moddalari inson huquqlari tashkilotlari tomonidan, xususan, tintuv va hibsga olish vakolatlarining kengayishi sababli tanqid qilindi [4];

– *Crime and Disorder Act 1998*. Ushbu qonun jamoatchilik va politsiya o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirdi. Ayniqsa, yoshlar jinoyatchiligiga qarshi kurashishda G'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga qarshi sud buyruqlari (ASBO) va "*Youth Offending Teams*" (YOTs) tashkil etilishi natijasida yoshlar orasidagi jinoyatlar 25 foizga kamayishiga erishildi. Buning asosiy sababi mazkur qonun bilan irqiy nafaratga asoslangan jinoyatlarni mustaqil huquqbuzarlik sifatida e'tirof etish sud jarayonlarida jazoni og'irlashtiruvchi holat sifatida qo'llanishidir, o'z o'rnida, bu irqiy va etnik nizolarning kamayishiga sabab bo'ldi [5];

– *Criminal Justice Act 2003*. Bu qonun sud jarayonlarini soddalashtirish va jazo tizimini isloh qilishga xizmat qildi. Jazo turlarining kengayishi, "*bad character evidence*" qabul qilinishi va qayta sudlanish (*double jeopardy*) imkoniyati sud tizimining samaradorligini oshirdi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ushbu qonun firibgarlik va iqtisodiy jinoyatlar bo'yicha sud ishlarini ko'rib chiqish muddatini 30 foizga tezlashtirdi [6];

– *Offender Rehabilitation Act 2014*. Ushbu qonun qisqa muddatli qamoq jazosiga hukm qilingan shaxslarni normal hayotga reabilitatsiya qilishga bag'ishlangan bo'lib, 12 oydan kam muddatli jazoni o'tagan shaxslarning qamoqdan chiqqandan keyingi 12 oylik nazorat tizimi qayta jinoyat sodir etish darajasini 10 foizga kamaytirdi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, mazkur qonun bilan joriy etilgan reabilitatsiya faoliyati talablari (RAR) jazo muddatidan oldin qamoqdan ozod qilinganlarning ijtimoiy moslashuvini 15 foizga oshirgan [7];

– *Policing and Crime Act 2017*. Ushbu qonun politsiya va favqulodda xizmatlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirdi, terrorizm va uyushgan jinoyatchilikka qarshi choralarini mustahkamladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, qonun politsiyaning tezkor javob berish qobiliyatini 25 foizga oshirdi, ayniqsa, jamoat joylarida xavfsizlikni ta'minlashda ijobiy natijalarga erishilishiga xizmat qildi [8].

Buyuk Britaniyada jinoyatchilikka qarshi kurashishda qonunlar bilan birga, milliy strategiyalar va dasturlar muhim o'rin tutadi. Tadqiqot natijalari ushbu dasturlarning samaradorligini va ularning jinoyatchilikka ta'sirini ko'rsatadi:

– "*Neighbourhood Watch* (1982)". Ushbu dastur jamoatchilik ishtirokini kuchaytirish orqali mahalliy jinoyatlarni kamaytirishga xizmat qildi. Tadqiqotga ko'ra, "*Neighbourhood Watch*" amal qiladigan mahallalarda o'g'rilik va vandalizm kabi jinoyatlar 16 foizga kamaydi. Dasturning muvaffaqiyati politsiya bilan aholi o'rtasidagi ishonchni oshirish (76 foiz respondentlar dasturga qo'shilishga tayyor ekanini bildirgan) va mahalliy aloqalarni mustahkamlashda namoyon bo'ldi. Angliya va Uelsda 3,8 million xonadonni qamrab olgan bu dastur jamoatchilikning faol ishtirokini ta'minlashda muhim namunadir [9].

– "*Secured by Design* (1989)". Atrof-muhit orqali jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan bu dastur qurilish va shaharsozlikda xavfsizlik standartlarini joriy etish orqali samara ko'rsatdi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, "*Secured by Design*" standartlariga muvofiq qurilgan binolarda o'g'rilik 87 foizga, umumiy jinoyatlar esa 50–60 foizga kamaydi. Dasturning muvaffaqiyatli jihati politsiya, arxitektorlar va mahalliy hokimiyatlar o'rtasidagi hamkorlikning to'g'ri yo'lga qo'yilganligidadir. Mazkur dasturga asosan 1989-yildan hozirgi kunga qadar amalga oshirilayotgan qurilishlarning barchasi jinoyatlarning sodir etilishini qiyinlashtirish va oldini olishga qaratilgan [10].

– "*Project Servator* (2014)". Profilaktik patrul dasturi bo'lgan "*Project Servator*" jamoat joylarida xavfsizlikni ta'minlashda samarali ekanini ko'rsatdi. Tadqiqotga ko'ra, dastur joriy etilgan hududlarda shubhali faoliyatlar bilan bog'liq jinoyatlar 20 foizga kamaydi. Politsiyaning kutilmagan patrullari va jamoatchilik bilan hamkorligi aholida xavfsizlik hissini oshirdi (80 foiz respondentlar politsiya faoliyatini ijobiy baholagan) [11].

– “*Modern Crime Prevention Strategy* (2016)”. Bu strategiya jinoyatlarning asosiy sabablarini (imkoniyat, shaxsiy xususiyatlar, foyda, giyohvandlik va alkogol) barta-raf etishga qaratilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, strategiya doirasidagi profilaktik choralar giyohvandlik bilan bog‘liq jinoyatlarni 15 foizga, alkogol bilan bog‘liq jinoyatlarni esa 10 foizga kamaytirdi. Strategiyaning ijro etilishida idoralararo hamkorlik muhim rol o‘ynaydi [12].

– “*Serious Violence Strategy* (2018)”. Jiddiy zo‘ravonlikka qarshi kurashishga qaratilgan bu strategiya “*Violence Reduction Units*” (VRUs) loyihasi orqali amalga oshirildi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, VRU faoliyat yuritayotgan hududlarda zo‘ravonlik holatlari 2019–2020-yillarda 41,377 taga kamaydi. Dasturning muvaffaqiyati yoshlar bilan erta aralashuv va mahalliy hamkorlikda ko‘rsatildi, lekin moliyalashtirish va uzoq muddatli rejalashtirishda muammolar mavjud [13].

– “*Beating Crime Plan* (2021)”. Ushbu strategiya mahalliy jinoyatlar, yashirin tahdidlar va kiberjinoyatlarga qarshi kurashishga qaratilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, dastur doirasidagi elektron monitoring va mahalliy politsiya xodimlari bilan aloqa tizimi mahalliy jinoyatlarni 12 foizga kamaytirdi. Shuningdek, yoshlarni ta‘limga qaytarish dasturlari zo‘ravonlikka moyillikni 10 foizga pasaytirdi [14].

– “*National Policing Prevention Strategy* (2022)”. Politsiya faoliyatida profilaktikaga e‘tibor qaratilgan bu strategiya jinoyatlar-ning oldini olishda samara ko‘rsatdi. Tadqiqotga ko‘ra, strategiya doirasidagi choralar jabrlanuvchilar sonini 8 foizga kamaytirdi va politsiyaga bo‘lgan talabni 5 foizga pasaytirdi [15].

– “*CONTEST 2023*”. Terrorizmga qarshi milliy strategiya bo‘lgan “*CONTEST*” “*Prevent*”, “*Pursue*”, “*Protect*” va “*Prepare*” yo‘nalishlari orqali amalga oshirildi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, 2017–2023-yillarda 39 ta yirik terror-

chilik hujumi fosh etildi va 169 ta shaxs ter-rorchilik faoliyati uchun qo‘lga olindi. Strate-giyaning muvaffaqiyati idoralararo hamkorlik va jamoatchilik ishtirokida namoyon bo‘ldi, lekin raqamli muhitdagi tahdidlarga qarshi kurashishda yangi texnologiyalardan foydalanishda murakkabliklar mavjud [16].

– “*National Cyber Strategy* (2022–2030)”. Kiberjinoyatlarga qarshi kurashishga qaratilgan bu strategiya Milliy kiberxavfsizlik markazi (NCSC) va Milliy kiberkuchlar (NCF) orqali amalga oshirilmoqda. Tadqiqot natija-lariga ko‘ra, strategiya kiberhodisalar sonini 10 foizga kamaytirdi va kiberxavfsizlik stan-dartlariga rioya qilish darajasini 15 foizga oshirdi [17].

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, Buyuk Bri-taniyada jinoyatchilik darajasi 2023-yilga nisbatan 2024-yilda 4 foizga pasaydi, lekin firibgarlik (33 foizga oshgan, 4,1 million ho-disa) va o‘g‘rilik (13 foizga oshgan, 2,9 mil-lion hodisa) kabi jinoyatlar o‘shishi kuzatildi. Kompyuterlardan noqonuniy foydalanish 23 foizga kamaydi, bu shaxsiy ma‘lumotlarga ruxsatsiz kirishning 29 foizga pasayishi bi-lan bog‘liq. Ushbu ko‘rsatkichlar qonunlar va dasturlarning umumiy jinoyatchilikka ijobiy ta‘sirini, lekin ayrim sohalardagi muammo-larni ham ko‘rsatadi.

### **Tadqiqot natijalari tahlili**

*Buyuk Britaniya qonunchiligi tahlili.* Buyuk Britaniyada jinoyatchilikka qarshi kurashish-ning huquqiy asoslari, xususan, *Police and Criminal Evidence Act 1984 (PACE)*, *Criminal Justice and Public Order Act 1994*, *Crime and Disorder Act 1998*, *Criminal Justice Act 2003*, *Offender Rehabilitation Act 2014* va *Policing and Crime Act 2017* kabi qonunlar kompleks yondashuvni shakllantirishda muhim rol o‘ynadi. PACE qonuni politsiya faoliyatining shaffofligini ta‘minlash, dalillarni qonuniy yig‘ish va gumonlanuvchilarning huquqlarini himoya qilishda mustahkam asos yaratdi.

Masalan, PACE doirasida joriy qilingan “*Codes of Practice*” (Amaliy qoidalar) politsi-yaning tintuv, hibsga olish va so‘roq jarayon-

larida qonunga rioya qilishini kafolatlab, bu esa sudlarda dalillarning qabul qilinishi va jayronlarning adolatligini oshirdi. *Crime and Disorder Act 1998* esa jamoatchilik xavfsizligini mustahkamlash va yoshlar jinoyatchiligini kamaytirishda muhim o'zgarishlarni amalga oshirishga sabab bo'ldi. Xususan, "Anti-Social Behaviour Orders" (ASBO) joriy etilishi orqali mahalliy jamoalarda bezorilik va mayda huquqbuzarliklarga qarshi samarali choralar ko'rildi. 2024-yilgi statistik ma'lumotlarga ko'ra, Angliya va Uelsda umumiy jinoyatchilik darajasi 1000 kishiga 87 ta jinoyatni tashkil etdi, ya'ni 2023-yilga nisbatan 4 foizga pasaygan, bu qonunlarning umumiy samardorligini ko'rsatadi. Biroq firibgarlik (33 foizga oshgan, 4,1 million hodisa) va o'g'rilik (13 foizga oshgan, 2,9 million hodisa) kabi jinoyatlarning o'sishi yangi tahdidlarga qarshi qo'shimcha choralar zarurligini ko'rsatmoqda.

*Milliy strategiyalar va dasturlarning natijalari.* Buyuk Britaniyaning "Neighbourhood Watch", "Secured by Design", "Project Servator", "Modern Crime Prevention Strategy", "Serious Violence Strategy", "Beating Crime Plan", "National Policing Prevention Strategy", "CONTEST 2023" va "National Cyber Strategy 2022 – 2030" kabi milliy strategiyalari va dasturlari jinoyatchilikka qarshi kurashishda kompleks hamda profilaktik yondashuvning samarasini ko'rsatadi.

"Neighbourhood Watch" dasturi fuqarolarning xavfsizlikni ta'minlashda faol ishtirokini rag'batlantirdi, natijada Angliya va Uelsda 3,8 milliondan ortiq xonadonni qamrab olgan 170,000 mahalla kuzatuv guruhlarini tashkil etildi.

Tadqiqotlarga ko'ra, ushbu dastur joriy qilingan hududlarda jinoyatchilik darajasi o'rtacha 16 foizga kamaydi. "Secured by Design" dasturi esa shaharsozlik va qurilishda xavfsizlik standartlarini joriy etish orqali o'g'rilik va vandalizm kabi jinoyatlarni 50–60 foizga kamaytirdi. "Project Servator" profilaktik patrullari terrorizm va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashishda samarali

bo'lib, jamoat joylarida shubhali faoliyatlarni aniqlash va ularning oldini olishda muhim natijalarga erishdi. "Serious Violence Strategy" va "Beating Crime Plan" zo'ravonlik va kiberjinoyatlarga qarshi kurashishda muhim yutuqlarni qayd etdi, xususan, "Violence Reduction Units" (VRU) faoliyati natijasida 2019–2020-yillarda 41,377 ta zo'ravonlik hodisasining oldi olindi. "CONTEST 2023" terrorizmga qarshi kurashishda davlat idoralari va jamoatchilik o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamladi, natijada 2017–2023-yillarda 39 ta yirik terrorchilik hujumi fosh etildi. "National Cyber Strategy" kiberxavfsizlik sohasida raqamli infratuzilmani mustahkamlash va kibertahdidlarga qarshi tezkor javob berish qobiliyatini oshirdi.

*Jamoatchilik ishtiroki va ishonch.* Buyuk Britaniya tajribasining muhim elementlaridan biri jamoatchilikning jinoyatchilikka qarshi kurashishda faol ishtirokidir. "Neighbourhood Watch" dasturi orqali fuqarolar mahalliy xavfsizlikni ta'minlashda muhim subyekt sifatida ishtirok etmoqda. 2009–2010-yillarda o'tkazilgan "British Crime Survey" ma'lumotlariga ko'ra, mahallasida kuzatuv guruhi mavjud bo'lmagan respondentlarning 76 foizi ushbu guruhlariga qo'shilishga tayyorligini bildirgan. Bu jamoatchilikning politsiyaga bo'lgan ishonchi va xavfsizlikni ta'minlashda faollik darajasini ko'rsatadi. "Project Servator" dasturi esa jamoatchilikni "xavfsizlikni ta'minlashda ishtirok eting" g'oyasi asosida safarbar qilib, fuqarolarning shubhali holatlar to'g'risida xabar berish faolligini oshirdi. "CONTEST 2023" strategiyasi doirasida jamoatchilik bilan aloqa kanallari (*gov.uk*, matbuot anjumanlari, "ProtectUK" platformasi) orqali axborot almashinuvi mustahkamlandi, bu esa aholining terrorizmdan himoyalanganlik hissini kuchaytirdi.

*Texnologiya va innovatsiyalarning roli.* Buyuk Britaniyada jinoyatchilikka qarshi kurashishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. "Secured by Design" dasturi "CCTV" kameralari va xavf-

sizlik tizimlarining qo'llanishini kengaytirdi, bu esa jinoyatlarning oldini olishda samarali vosita bo'ldi. "Project Servator" dasturi doirasida dronlar, videokuzatuv va sun'iy intellektga asoslangan tahlil vositalari shubhali faoliyatlarni aniqlashda foydalanilmoqda. "National Cyber Strategy" kiberxavfsizlik sohasida sun'iy intellekt va raqamli platformalardan foydalanish orqali kibertahdidlarga qarshi tezkor javob berish qobiliyatini oshirdi. Masalan, Milliy kiberxavfsizlik markazi (NCSC) raqamli infratuzilmani mustahkamlash va kiberhujumlarning oldini olishda muhim natijalarga erishdi. 2023-yilda NCSC tomonidan kibertahdidlarga qarshi 800 ga yaqin tergov amalga oshirildi, bu kiberxavfsizlik tizimining samaradorligini ko'rsatdi [18].

*Qiyinchiliklar va cheklovlar.* Shunday bo'lsa-da, Buyuk Britaniyaning jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimida bir qator muammolar mavjud. Firibgarlik va kiberjinoyatlarning o'sishi (2024-yilda firibgarlik 33 foizga oshgan) zamonaviy tahdidlarga qarshi yangi yondashuvlar zarurligini ko'rsatmoqda. *Crime and Disorder Act 1998* doirasida joriy qilingan *ASBO* buyruqlari ba'zi hollarda inson huquqlariga zid deb tanqid qilindi, xususan, sukut saqlash huquqining cheklanishi va tintuv vakolatlarining kengayishi fuqarolar erkinligiga tahdid soladi, deb baholandi. "Serious Violence Strategy" va VRU loyihalari moliyaviy mablag'larning yetarli emasligi va uzoq muddatli rejalashtirish murakkabligi tufayli ba'zi hududlarda samarasiz bo'ldi. Bundan tashqari, politsiya faoliyatida irqiy yoki milliy kelib chiqishga asoslangan tintuvlar masalasi jamoatchilikda muhokama mavzusi bo'lib kelmoqda, bu politsiyaga nisbatan ishonchga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

### **Xulosalar**

Buyuk Britaniyaning tajribasi asosida O'zbekistonda jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini takomillashtirish uchun quyidagilarni mamlakatimiz huquqni qo'llash amaliyotiga tatbiq etish maqsadga muvofiq:

– "Neighbourhood Watch" dasturining mahalliy kuzatuv guruhlarini modelini O'zbekistonning mahalla tizimiga moslashtirish mumkin. Masalan, mahalla raislari va profilaktika inspektorlari koordinator sifatida ishtirok etib, fuqarolarni xavfsizlikni ta'minlashda faol qatnashishga undashi mumkin;

– "Secured by Design" standartlarini O'zbekistonning shaharsozlik va qurilish jaryonlariga joriy etish orqali jinoyatlarning oldini olish imkoni ortadi;

– "Project Servator" dasturining profilaktik patrullari O'zbekistonning ichki ishlar organlari tomonidan qo'llanishi, xususan, jamoat joylarida xavfsizlikni ta'minlashda samarali bo'lishi mumkin;

– "CONTEST 2023" va "National Cyber Strategy" kiberxavfsizlik va terrorizmga qarshi kurashishda O'zbekiston uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va idoralara hamkorlikni kuchaytirish bo'yicha muhim imkoniyatlarni yaratadi. O'zbekistonda mavjud mahalla tizimi va profilaktika inspektorlari bilan ushbu dasturlarni integratsiya qilish orqali jamoatchilik ishonchini mustahkamlash, jinoyatchilik darajasini kamaytirish mumkin.

Buyuk Britaniyaning jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimi qonunchilik, jamoatchilik ishtiroki, profilaktik choralar va zamonaviy texnologiyalarning uyg'unligiga asoslanadi. Ushbu tizimning samaradorligi statistik ma'lumotlar (jinoyatchilik darajasining 4 foizga pasayishi, zo'ravonlik hodisalarining oldini olish) va amaliy natijalar ("Neighbourhood Watch", "Secured by Design", "Project Servator") orqali isbotlandi. Biroq firibgarlik va kiberjinoyatlarning o'sishi, moliyaviy cheklovlar va inson huquqlariga doir tanqidlar tizimning murakkab muammolari sifatida ko'zga tashlanadi. O'zbekistonda ushbu tajribani mahalla tizimi va mavjud normativ-huquqiy bazaga moslashtirish orqali jinoyatchilikka qarshi kurashishning samarali modelini yaratish mumkin.

## REFERENCES

1. UK Crime Rates, Sep 2024. Available at: <https://crimerate.co.uk/>
2. Crime and justice. Crime in England and Wales: year ending December 2024. Available at: <https://www.ons.gov.uk/peoplepopulationandcommunity/crimeandjustice/bulletins/crimeinenglandandwales/yearendingdecember2024>
3. Police and Criminal Evidence Act 1984, p.60. UK legislation. Available at: <https://www.legislation.gov.uk/ukpga/1984/60/contents>
4. Criminal Justice and Public Order Act 1994, p. 33. UK legislation. Available at: <https://www.legislation.gov.uk/ukpga/1994/33/contents>
5. Crime and Disorder Act 1998, p. 37. UK legislation. Available at: <https://www.legislation.gov.uk/ukpga/1998/37/contents>
6. Criminal Justice Act 2003, p. 44. UK legislation. Available at: <https://www.legislation.gov.uk/ukpga/2003/44/contents>
7. Offender Rehabilitation Act 2014, p. 11. UK legislation. Available at: <https://www.legislation.gov.uk/ukpga/2014/11/contents>
8. Policing and Crime Act 2017, p. 3. UK legislation. Available at: <https://www.legislation.gov.uk/ukpga/2017/3/contents>
9. Neighbourhood Watch. Community Crime Prevention Program. England & Wales Publ., 1982.
10. Police Crime Prevention Initiatives. 1989. Available at: <https://www.securedbydesign.com/about-us/news/the-importance-of-secured-by-design>
11. Project Servator. City of London Police. 2014. Available at: <https://www.cityoflondon.police.uk/advice/advice-and-information/wsi/watch-schemes-initiatives/ps/project-servator/>
12. Modern Crime Prevention Strategy. Home Office, 2016. Available at: <https://www.gov.uk/government/publications/modern-crime-prevention-strategy>
13. Serious Violence Strategy. Home Office, 2018. Available at: <https://www.gov.uk/government/publications/serious-violence-strategy>
14. Beating Crime Plan. Home Office, 2021. Available at: <https://www.gov.uk/government/publications/beating-crime-plan>
15. National Policing Prevention Strategy. National Police Chiefs' Council, 2022. Available at: <https://www.npcc.police.uk/our-work/work-of-npcc-committees/prevention-coordination-committee/>
16. Counter-terrorism strategy (CONTEST). Home Office, 2023. Available at: <https://www.gov.uk/government/publications/counter-terrorism-strategy-contest-2023>
17. National Cyber Strategy. Cabinet Office, 2022. Available at: <https://www.gov.uk/government/publications/national-cyber-strategy-2022>
18. Annual Review. National Cyber Security Centre, 2023. Available at: <https://www.ncsc.gov.uk/report/annual-review-2023>

# YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2025-YIL 3-SON

VOLUME 5 / ISSUE 3 / 2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.3.